
XOTIN-QIZLAR MANFAATLARI DOIMIIY E'TIBORDA

Bugun Toshloq tumanida viloyat hokimi o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Komila Kavlonova tegishli korxonalar va tashkilot rahbarlari ishtirokida sayyor qabul o'tkazdi.

Qabulda davomda 16 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Har bir murojaat mutasaddi tashkilot va korxonalar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqildi. Moddiy yordam ajratish, subsidiya asosida tikuv mashinasi olish, pishiriq pechi olish kabi 13 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etildi. Qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 2 tasi nazoratga olindi. 1 ta murojaat bo'yicha fuqaroga tushuntirish berildi.

2024-08-26 05:16:01